

ILM ZIYOSI

2017
TDTU
OLMALIQ FILIALI



Olimlik mansab emas, mas'uliyat. Ilm ahli borki, o'qiydi, o'rganadi va o'rgatadi. Bu yo'ldagi ustozlar shuning uchun doim qadrd. Yuzlaridan nur balqiydi. Yillar davomida ilmning ichida yashaydilar, hamma yaxshi narsalarga faqat kitob o'qib erishadilar. Shuning uchun ular ziyo ahlidan hisoblanadilar. TDTU Olmaliq filialida aynan mana shunday ilm yo'lida mehnat qilayotgan ustozlar doim e'tiborda. "Olim o'qigan maktab" loyihasi esa fikrimizga isbotdir. Bu loyiha tashabbuskori bo'lgan TDTU OF jamoasi uni amalga oshirish orqali loyiha qahramoni bo'lgan professor-o'qituvchilarni qanchalik ruhlantira olayotganini loyiha ishtirokchilari bo'lgan ustozlarning quyida berilgan fikrlari orqali bilib olishingiz mumkin.

OLIMLIK SHOKSUPASIDAGI USTOZLAR



2-SAHIFA

Toliblik zinapoyasi yo'lida

3 - SAHIFA



Iroda Ashirmatova:
«Oxirgi kursning go'zal lahzalari»



Behzod Abdurafiqov:
«2024-yilning eng yaxshi sovg'asi»



Abdusalil Ismatov:
«Buvimning quvonchi menga kuch bo'ldi»



Talabalik, qalbimizga ilm-u urfon urug'larin ekkan sen...

4 - SAHIFA



OLIMLIK SHOXSUPASIDAGI USTOZLAR



Olimlik mansab emas, mas'uliyat. Ilm ahli borki, o'qiydi, o'rganadi va o'rgatadi. Bu yo'ldagi ustozlar shuning uchun doim qadrda. Yuzlaridan nur balqiydi. Yillar davomida ilmning ichida yashaydilar, hamma yaxshi narsalarga faqat kitob o'qib erishadilar. Shuning uchun ular ziyo ahlidan hisoblanadilar.

TDTU Olmaliq filialida aynan mana shunday ilm yo'lida mehnat qilayotgan ustozlar doim e'tiborda. "Olim o'qigan maktab" loyihasi esa fikrimizga isbotdir. Bu loyiha tashabbuskori bo'lgan TDTU OF jamoasi uni amalga oshirish orqali loyiha qahramoni bo'lgan professor-o'qituvchilarni qanchalik ruhlantira olayotganini loyiha ishtirokchilari bo'lgan ustozlarning quyida berilgan fikrlari orqali bilib olishingiz mumkin.



Soyib Abdurahmonov,
TDTU Olmaliq filiali professori,
texnika fanlari doktori

20 yilga yoshartirgan hayajon

7 yoshimda qadam qo'ygan maktabimga salkam 80 yoshimda faxr va g'urur, hurmatu izzatda yana borishimni, to'g'risi o'ylamagan edim. Ayniqsa, ilm yo'lidagi kamtarona mehnatlarim do'stlarim, yaqinlarim, oila a'zolarim, maktab va TDTU Olmaliq filiali jamoasi tomonidan

bunchalik yuksak baholanib, shunaqa bir esda qolarli tadbir tashkillashtirilishini kutmagandim. Maktabga faxr bilan kirib borar ekanman, kitob o'qib, olim bo'lib chuqur ehtirom egasiga aylanganimni his qildim.

Nevara qizimning stipendiyasini yig'ib men o'qigan maktabga kitoblar to'plamini hadya qilishi buva sifatida rosa xursand

qildi. 40 yildan buyon ko'rmagan sinfdoshlarimni ko'rdim. Bu men uchun eng yaxshi uchrashuv. Nafaqat, maktab, balki mahalla, tuman va viloyat faollari ham bu tadbir uchun alohida ehtirom ko'rsatishib kelishgani, xilma-xil fikrlar, o'zim ham bilmaydigan o'zim haqidagi chiroyli gaplar meni 20 yilga yoshartirdi. Tadbir davomida 2-sinf o'quvchi-qizining raqsi meni kayfiyatimga yana ham kayfiyat qo'shdi.

Sinfdoshlarim orasida eng yosh ko'ringani o'zim ekanman (hazil). Umuman yillar davomida erishgan barcha muvaffaqiyatlarim zamirida ilm turadi. Abadiy xotira, unutilmas kun, atrofidagi insonlarning ilm odamiga bo'lgan hurmati, bolalikdagi xotiradosh do'stlar diydori, ota hovlimdagi ko'rsatilgan cheksiz ehtirom – TDTU Olmaliq filiali tomonidan tashkil etilgan "Olim o'qigan maktab" loyihasining menga eng katta sovg'asi, desam mubolag'a bo'lmaydi.



"ONAM YUZIDA FAXRNI KO'RDIM"

Ustozlarimiz o'qigan maktabga borganimda, ularga bag'ishlab tashkil etilgan tadbirni ko'rib rosa havas qilgan edim. Chunki ustoz maqomiga loyiq bo'lish uchun tinimsiz mehnat, bir necha yillik ilm yo'lini bosib o'tish lozim. Men hali "Olim

o'qigan maktab" loyihasi ishtirokchisi bo'lmasam kerak, deb o'ylardim. Lekin filial rahbariyati tomonidan maktabga borish rejalashtirilayotgani xabarini eshitgan kunimdan juda katta hayajonni his qildim. Chunki bu narsa menga bo'lgan ishonch va e'tibordan dalolatdir.

Maktab hovlisiga kirib borar ekanman, bolaligim yodimga tushdi. Maktab davrimdan o'qishga qiziqishim baland edi. Otam rahmatli ilm yo'lida erishayotgan yutuqlarimni ko'ra olmadilar. Lekin tadbir davomida onamning farzandi sha'niga aytilayotgan chiroyli gaplarni eshitayotganliklari, yuzidagi faxr va g'urur hissini tuyar ekanman, ilm yo'lidagi kichik yutuqlarim bilan farzand sifatida onamni quvonchiga sabab bo'lganim meni cheksiz quvontirdi. Maktab jamoasi va oila a'zolarim, filialdagi jamoam tomonidan bildirilgan samimiy tilaklar hali ilm narvonidan yanada cho'qqiga odimlashim kerakligini, bu yo'lda erishayotganlarim faqat meni emas, barcha yaqinlarimni yutug'i ekanligi mendagi mas'uliyat hissini oshirdi.

Dildora Sulaymonova,
Matematika va informatika kafedrasini mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori.



Faxrga to'la nigohlar

3-may kuni "Lahkerak" mahallasining 31-maktabida, ya'ni men o'qigan maktabda o'tkazilgan "Olim o'qigan maktab" tadbiri mening qalbmida chuqur iz qoldirdi. Sababi mening yoshligim, ilk maktabga borgan davrlarim, ustozlarim, sinfdoshlarim, mahalladoshlarimning diydorini ko'rish nasib etdi. Mening olimlik darajasiga erishganim, dotsentlik ilmiy unvoniga ega bo'lganim haqidagi ma'lumotlarni qadrdon jamoam orqali eshitganlari men uchun juda katta xursandchilik bo'ldi.

Bu darajaga erishganimga uzoq yillar bo'lgan bo'lsa ham, bu haqda mahallamning, ba'zi ustozlarimning, sinfdoshlarimning xabarlarini bo'lmagan. Bu xabar barchani birdek xursand qildi. Ayniqsa, maktab o'quvchilarining ko'zida sevinch, faxrlanish hislarini ko'rib, o'zim ham to'qlinlanib ketdim. Bunday tadbirlarni tashkil etgan oliygohimiz jamoasiga katta rahmatlarimni aytaman. Bunday tadbirlar hamisha davom etishini tilayman va kelajak avlodlarning oliy ta'limga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga xizmat qiladi deb o'ylayman.

Zamira Mirzakarimova,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

TOLIBLIK ZINAPOYASI YO'LIDA

Maktab - ilk saboqni bergan dargoh. Hayotimizning eng go'zal damlariga guvoh bo'lgan, katta yo'ldagi oltinga teng davrlarni bizga hadya eta olgan maskandir. Aynan mana shu davrni o'zining bilim va iqtidori bilan yanada go'zallashtirib, talabalikdagi imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan yoshlar anchani tashkil etadi. Xususan, TDTU Olmaliq filialida «Talaba o'qigan maktab» loyihasi doirasida aynan shunday yoshlar qamrab olinib, ular tahsil olgan maktabda turli tadbirlar o'tkaziladi. Quyida mana shu loyihaning talabaga ta'siri va uning taassurotlari bilan tanishishingiz mumkin.



**Iroda Ashirmatova,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti stipendiyasi sohibasi.**

Oxirgi kursning go'zal lahzalari

- Insoning eng beg'ubor davri hamda dastlabki ilm olish maskani bu maktabidir. Har qaysi inson o'zi o'qib katta bo'lgan jonajon maktabini sinfdosh do'stlari-yu ta'lim bergan ustoz-muallimlarini umrbod yodda saqlaydi. Maktabni bitirganimga 7 yil bo'libdi, bu vaqt oralig'ida menda juda ko'plab o'zgarishlar bo'ldi. Kollej va universitetda ko'plab ustozlardan ta'lim oldim, yangidan-yangi do'stlar ortirdim, o'zim istagan muvaffaqiyatlarga erishdim.

Universitetimizda tashkil etilgan «Talaba o'qigan maktab» loyihasi asosida men o'qigan 20-IDUMga filial jamoasi bilan birga bordik. Tadbir avvalida maktabimga borib, direktor bilan uchrashib, biroz suhbatlashdik. Ularga «Talaba o'qigan maktab» loyihasi haqida gapirib berdim. So'ng dars bergan ustozlarim bilan biroz suhbatda bo'ldim. Ular hozir qayerda o'qiyotganligim va qanday muvaffaqiyatlarga erishayotganimga qiziqdilar. Universitetni bitirayotganimni, shuningdek Beruniy nomidagi davlat stipendiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezident stipendiyasi kabi yutuqlarga erishganimni aytib berdim. Ular juda xursand bo'lishdi. Yillar davomida qilgan mehnatlarimizni ro'yobga chiqishi biz uchun katta baxt va muvaffaqiyatdir, shuning uchun ham pedagogik yo'nalishni tanlab adashmaganmiz, deya ta'kidlashdi.

TDTU OF jamoasi maktabdagi ustozlarimga samimiy fikrlarini bildirib, ularga tashakkur izhor etar ekan, ichimdagi hayajon va menga nisbatan ravo ko'rilgan bu e'tibor hayotimning tarix sahifalariga zarhal harflar bilan bitildi. O'sha ondagi hislarimni ta'riflashga bisotimdagi jamiki so'zlar ozlik qilsa kerak, deb o'ylayman. Loyihaga munosib ko'rilgan talabalar safida bo'lishimga ilmiy rahbarim Nurzod Nosirovning mehnatlarini alohida ta'kidlashim joiz. Aslida bu yutuqlar ustozlarimnikidir.

2024-yilning eng yaxshi sovg'asi

- «Talaba o'qigan maktab» loyihasi bo'yicha men tahsil olgan Nurobod shahridagi 52-sonli maktabdagi tadbirdan olgan taassurotlarim beqiyos darajada. Maktab vaqtlarim yodimga tushdi. O'qituvchilarim va maktabimning bu tadbirga tayyorgarligi, maktabda iqtidorli yoshlarning ko'pligi, ularning yutuqlari, TDTU Olmaliq filiali professor-o'qituvchilarining men haqidagi iliq fikrlari, iqtidorli talabalarning chiqishlari muhim jarayon bo'ldi kamina uchun.

Oila azolarimning so'zga chiqishi meni to'lqinlantirib yubordi. Ulardagi g'urur va sharaf tuyg'ulari so'zlarida va ko'zlarida yaqqol sezildi. Bu esa menga yana ham kuchliroq bo'lishni, hozirda mavjud barcha yutuqlarga erishish shartligi va kerakligini, yo'limda davom etib, bundanda yuksak marralarni zabt etishim kerakligini his qildim.

Bir insonni kamol topib, o'sishi uchun juda ko'plab mehnat sarf qilinadi. Ota-onamiz, ta'lim



**Behzod Abdurafiqov,
Yoshlar akademiyasi
lideri, magistrant**

bergan ustozlarimizning yagona bir istagi - bizning yutuqlarimizni ko'rishdir. Maktabimda bo'lgan tadbir 2024-yilning menga eng yaxshi sovg'asi bo'ldi.



«Buvimning quvonchi menga kuch bo'ldi»

- Men filialdagi 3 yillik o'quv davrimda asosan iqtidorli talaba sifatida o'z o'rnimga ega bo'la oldim. San'atga bo'lgan qiziqishim talabalikdagi hech bir jarayonga to'sqinlik qilmadi. Aksincha, tadbirlardagi faol ishtirokim munosib baholanib, minglab talabalar ichida, tanlanganlar safida «Talaba o'qigan maktab» loyihasi ishtirokchisi bo'lish baxti nasib etdi. Men o'qigan

Abduxalil Ismatov, Metallurgiya va kimyoviy texnologiyalar fakulteti talabasi.

maktabda tashkil etilgan tadbirda ota-onam, buvim, ustozlarim, do'stlarim va eng muhimi loyiha tashabbuskori bo'lgan TDTU OF jamoasining ishtiroki behad shodlantirdi. Kimlar uchundir shunchaki tadbir hisoblangan bu loyiha zamirida yuksak ishonch va e'tibor turibdi. Buni men kabi maktabida, yaqinlari safida o'zi haqidagi iliq fikrlar bildirilgan talabalargina his qila olishlari mumkin.

Maktabimda bo'lgan tadbirda ustozlarim, o'quvchilarning kutib olishi, tadbir uchun tayyorlab qo'yilgan sahna ko'rinishlari ko'zimni quvontiridi. Menga nisbatan bildirilgan tilaklar va ota-onamning ko'zlaridagi quvochdan ko'nglim ko'tarildi. Ayniqsa, oliygohimiz direktorining men haqimda aytgan so'zlaridan so'ng o'qishga va ijodga bo'lgan ishtiyoqim yanada oshdi, bundan tashqari do'stlarim, iqtidorli talabalardan iborat yelkadoshlarimdan ham juda xursand bo'ldim. Buvimning tadbirdan keyingi holati ularni yoshartirgandek go'yo. Salkam 90 yoshni qarshi olayotgan buvijonim uyimizga kelgan har mehmonga mendek nevarasi bilan faxrlanishi va maktabda o'tkazilgan tadbir haqida tinmay gapirib berayotgani menga rosa yoqayapti.



Talabalik, qalbimizga ilm-u urfon urug'larin ekkan sen...



Talabalik davridan sizda qanday yorqin xotiralar esda qolgan? Yillar o'tib, shu kabi savol berilganda, talabalarimiz yuziga tabassum yugurib, ko'zlari quvonchga to'lishini juda xohlar edik. Bu davrning har lahzasi aslida go'zal. Bu damlar fotoga muhrlansa, fotoga har qaralganda oltin davrning yorqin taassurotlari, samimiyligi bilan qalbingizdan joy olgan kursdosh-do'stlaringiz yodga tushadi. Bz ham muhim onlarni tarix zarvaraqalarida qoldirish maqsadida filial elektron gazetasida talabalar hayotidan estalik bo'lgan rasmlarni berib borishqa qaror qildik.



Nuroniylar insonlar fayzi



Geologik jarayonlarni kuzatish payti



"Moyiy tog'lar" bag'rida bir kun



Registon - tarixiy makon!



Ochiq dala sharoitidagi dars



Sayllarga yarashgan yoshlik



TTJda shashlik parti



Samarqanddagi sayru sayohat